ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

# ”Maktabgacha ta’lim tashkilotida 6-7 yoshli bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish metodlari”

**Osiyo Xalqaro Universiteti**

**Pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi**

**Madina O‘ktamovna Shukurova**

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning ma’naviy qiyofasiga asos bo’ladigan axloqiy sifatlarni shakllantirishning o’ziga xosligi

**Kalit so’zlar:** axloqiy sifatlar, maqol, folklor, kommunikativ yo‘naltirilganlik, axloqiy tarbiya, , ermak o‘yinlar, diksiya, diolog, axloq,xulq

Xalqimiz o‘z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og‘zaki ijodiy meros yaratgan. O‘zbek folklorining barcha janrlari ya’ni miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, naqllar, latifalar, loflar, tarixiy qo‘shiqlar, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, marosim folklori va bolalar folklorining barcha janrlari, xilma-xil qo‘shiqlar, og‘zaki drama, askiya va boshqalar katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadirlar. Xalq folklorida ta’lim va tarbiyaga oid ilg‘or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk, yuqori ma’naviy-axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya’ni aqliy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo‘lgan va tarbiya ishida qo‘llash mumkin bo‘lgan pedagogik ma’lumotlar o‘zbek folklorining sanab o‘tilgan barcha janrlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, xalq og‘zaki ijodining boshqa namunalaridagi singari, xalq maqollarti va ertaklarida halollik, to‘g‘rilik, yaxshilik, botirlik, saxiylik, go‘zallik, kamtarlik kabi axloqiy sifatlar yuksak baholanadi va aksincha, tekinxo‘rlik, egrilik, yomonlik, qo‘rqoqlik, baxillik, xunuklik, manmanlik singari salbiy xususiyatlar qoralanadi. Misol tariqasida bilimdonlik va ilmsizlikka oid ushbu maqollarni keltiramiz: “Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir”, “Bildirish uchun bilish kerak”, “Bilimsiz kishiga ish yo‘q, ilmsiz kishiga osh yo‘q”. Yoki “Farhod va Shirin”, “Uch o‘g‘il”, “Aql va oltin” ertaklarida ilm-hunar ulug‘lansa, “Yetti ahmoq” “Kuygan chol”, “Soqi mumsik bilan Boqi mumsik” kabi ertaklarda savodsizlik, ahmoqlik, fahmsizlik kabi illatlar kulgi ostiga olingan.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalariga xalq pedagogikasida keng o‘rin berilganligi tufayli, xalq og‘zaki ijodi janrlarida axloq-odob haqida qimmatli g‘oyalar ilgari surilgan. Profeccop A. Zunnunovning ta’kidlashicha, “har bir xalq, jumladan o‘zbek xalqi ham axloq qonun-qoidalarini yaratdi va u insoniylik asosi hisoblanadi. Misol uchun, “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin” maqolini olaylik. Unda insonga bo‘lgan munosabat yorqin ifodalanadi. Xalq tasavvurida olim bo‘lishga nisbatan odam bo‘lish mushkuldir. Shu sababli ham qadimdan insoniylik yosh avlodni go‘zal axloqli, ma’naviyatli qilib tarbiyalashda asosiy mezon hisoblangan va u tarbiyaning asosi sifatida hozir ham davom ettirilmoqda. Milliy maktabda ta’lim-tarbiyani insoniylashtirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, xalq pedagogikasi manbalaridan biri bo‘lgan o‘zbek folklorining yoshlarda insoniylikni, axloqiy xususiyatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanmog‘imiz zarur. Xalq pedagogikasiga ko‘ra yosh avlodda mehnatsevarlikni shakllantirish insonning aqliy yetukligi, jismoniy salomatligi va kamoloti, axloqiy pokligi va undagi nafosat xususiyatlarini vujudga kelishi bilan bog‘liqdir

Ma’naviy- axloqiy tarbiya nima va u o‘z oldiga qanday maqsadni qo‘ydi?

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-4, ISSUE-2

Ma'naviy- axloqiy tarbiya **birinchidan,** ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib qoida bo'lib, bu tartib qoidalarining xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. [1]Jumladan, axloq, adolat, saxovat, halovat, halollik, rostgo'ylik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. U bizning kundalik ishlarimizga va ongimizga aktiv ta'sir ko'rsatib, jamiyat nomidan yaxshilik bilan yomonlik, zulm, adolat bilan adolatsizlik o'rtasidagi va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan ishlarni, xatti-harakatlarni belgilab beradi.

**Ikkinchidan**, ma'naviy-axloqiy tarbiya ijtimoiy fikr, ong bilan jamiyatda belgilab qo'yilgan odamlarning xulq atvor qoidalarining yig'indisi bo'lib, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini, majburiyatlarni belgilab beradi. Axloq odamlarni jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy yetuk, yetuk xulq atvorining namunasi bo'lib xizmat qiladi. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Axloq me'yorlari xulq atvorning boshqaruvchisi sifatida odob me'yorlariga yaqin turadi. Huquqga zid xatti-harakat axloqsiz harakat deb qaraladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli bo'lishga o'rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi.

**Uchinchidan**, ma'naviy-axloqiy tarbiya falsafiy kategoriya bo'lib, har bir shaxs uchun zarur bo'lgan rostgo'ylik, kamtarlik, halollik, oliyjanoblik, mehnatsevarlik, xushyorlik, odoblilik, insonparvarlik singari fazilatlarni shakllartiradi.

**To'rtinchidan,** ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy qatlamning, xalqning ma'naviy qiyofasi, g'oyasi, ruhiyatining xarakterli xususiyati sifatida maydonga chiqadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng asosiy vazifasi fuqarolikni shakllantirishdan iboratdir. "Eng muhimi,-deb yozgan yedi V.A.Suxomlenskiy fuqorolikni tarbiyalashdir, chunki bu butun tarbiyaviy ishlarning mag'zi, o'zagi hisoblanadi". Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya jarayonining samarali kechishida tarbiyachilarning ta'sirchan pedagogik vositalardan foydalana olishlari ham muhim ahamiyatga ega. Muammoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish natijasida bolada ma'naviy- axloqiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi tarbiyaviy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qilindi:

1) xalq pedagogikasi g'oyalaridan keng foydalanish;

2) xalq og'zaki ijodi namunalari (ertaklar, topishmoqlar, maqollar,afsonalar, dostonlar, xalq qo'shiqlari, pand-nasihatlar, o'gitlar);

3) taniqli kishilaming(faylasuflar, allomalar) hayoti va faoliyatiga oid ibratli misollar;

4) oilaviy an'analar, urf-odatlar(beshikka belash marosimi ), milliy o'yinlar ( besh tosh o'yini, varrak uchirish, arqon tortish), udumlar (oila a'zolari uchun ahamiyatli bo'lgan sanalami nishonlash, o'tganlami yod etish va hokazolar);

5) keksa avlod vakillari(bobo-buvilarimiz), ota-onalar hamda katta yoshli oila a'zolarining shaxsiy namunasi;

6) xalq og'zaki ijodi namunalarini (masal, ertak,hikoyalar) multimedia, animatsion videoroliklar hamda multfilmlar vositasida;

7) oila va oila tarbiyasiga oid ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop asarlar;

Barchamizga ma'lumki, ezgu g'oyalarni targ'ib etuvchi hikoyalar, ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois har bir oilaning ham kitob javonida ertaklar to'plamining bo'lishi maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oilada mutola qilishlari, hamda boshlangich ta'limni olishlari uchun "kamalakning yeti jilosi" nomli kitoblar to'plami taqdim etib

boriladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad bolalarning kitobga mehr qo‘yishi hamda ularning ma’naviy, axloqiy dunyosini boyitishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni harakatga undaydigan, o‘z kuchiga ishonch, hamma narsani ijobiy tomonini izlashga, axloqiy sifatlarni o‘zlashtirishga odatlantiradigan ertaklarni aytib berish ma’quldir.

Tadqiqotimiz davomida biz o‘zbek xalq ertaklarini sahnalashtirish maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega, degan xulosaga keldik. Mashg‘ulotlarning tuzilishida mavzu, ko‘zlangan tarbiyaviy maqsad, qo‘llanadigan metod va ko‘rgazmali qurollar, matnni emotsional tarzda so‘zlab berish, suhbat (bunda mehnatsevarlik, insonparvarlik, do‘stlik, mas’uliyatlilik mazmuniga kiradigan axloqiy sifatlarga urg‘u berish), o‘zbek xalq ertaklardan parchalarni rollarga bo‘lib ijro etish, rasmlar asosida bayon qilish kabilar ko‘zda tutildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O ‘YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 484-486.

2. Oktam’s, S. M. (2023). Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 104-108.

3. O’ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 357-360.

4. O’ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *1*(5), 96-99.

5. Shukurova, M. (2023). METHODS AND METHODS OF INCREASING CHILDREN’S SPEECH IN A PRESCHOOL ORGANIZATION. Modern Science and Research, 2(10), 477–480.

6. Ro’ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.

7. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6), 47-51.

8. Ro‘ziyeva, M. Y. (2021). O’qish darslarida fasllar bilan bog’liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro ‘ziyeva MY, Boshlang ‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloyeva, BuxDU, boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).

9. Ro’ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro’ziyeva, BuxDu Boshlang’ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).

10. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7.*

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-4, ISSUE-2

11. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, *10*.

12. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.

13. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *6*(1), 54-68.

14. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, *7*(17), 461-466.

15. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o ‘quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shaklantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 100-106.

16. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. Gospodarka i Innowacje., 28, 6-11.

17. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQ, MULOQOT O`QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 52–62.

18. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O’STIRISH MASHG’ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.

19. Isomova Farog’at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11). Retrieved from https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444.

20. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 386-388.

21. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO’LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *1*(5), 339-344.

22. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.

23. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. Modern Science and Research, 2(5), 1009-1014.

24. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O’RNI. Экономика и социум, (12-2 (103)), 675-678.

25. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG ‘ISHGAN XULQINING KO ‘RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO ‘RINISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 528-532.

26. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G’OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.

27. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-4, ISSUE-2

28. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.

29. Умурзоқов, Д. (2023). МИЛЛИЙ ЎЗИНИ ЎЗИ АНГЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. Interpretation and researches, 1(6).

30. Умурзоқов, Д. Х. (2023). МИЛЛИЙ МАНСУБЛИК БОРАСИДАГИ ИЛК ЎСПИРИНЛАРНИНГ ТАСАВВУРЛАРИДА ИЖТИМОИЙ РОЛЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 567-572.

31. Умурзаков, Д. Х. (2014). ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В СОЗНАНИИ РАННИХ ПОДРОСТКОВ. Человеческий фактор: Социальный психолог, (1), 110-116.

32. Умурзоқов, Д. Х., & Расулова, Ю. Б. ИЛК ЎСПИРИНЛАРНИНГ ЁШГА ОИД ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИ МИЛЛАТГА МАНСУБЛИКНИ АНГЛАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет, (S2), 130-132.

33. Kholmurodovich, U. D., & Nuralievna, R. Z. (2021, February). CAUSES AND MOTIVATIONS OF CONFLICTS. In E-Conference Globe (pp. 26-28).

34. Kholmurodovich, U. D., & Nuriddinovich, S. A. (2021, February). SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CAUSES OF MINOR CRIMES. In E-Conference Globe (pp. 23-25).

35. Умурзаков, Д. Х., & Жураева, Н. А. (2020). Женщины как объект управленческой деятельности. European science, (4 (53)), 45-47.

36. Jalolov, T. (2023). UNDERSTANDING THE ROLE OF ATTENTION AND CONSCIOUSNESS IN COGNITIVE PSYCHOLOGY. Journal of Universal Science Research, 1(12), 839-843.

37. Jalolov, T. S. (2023). MATH MODULES IN C++ PROGRAMMING LANGUAGE. Journal of Universal Science Research, 1(12), 834-838.